Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim samaradorligini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning o'rni	694
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Qodirova Sarvinoz Bahodir qizi	
Tikuv texnologiyalari asosida o'quvchilarning amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish	698
Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna	
Bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlar uyg'unligi	702
Qurbonova Nafisa Saidjonovna	
Tárbiya pánin oqítw arqalı oqíwshılardıń kreativ qábiletin rawajlandırıw.....	706
Reymova Gulaim	
Mirishkor toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari	710
Ro'ziyeva Hilola Fayzulla qizi	
Taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi	714
Saydaxmadov A'zamxon Valixonovich, Qosimova Nargizaxon Rustamxon qizi	
The Role of Music in Human Spiritual Development and Educational Significance.....	717
Shokirkhonov Bakhtiyorxon Botirkhonovich	
Boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari.....	722
Sayfedinova Dildora Ikramiddinova	
Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun gosptal maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish	726
Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna, Qayumova Sabrina To'liqin qizi	
Neologizmlar – badiiy matnda uslubiy vosita sifatida	730
Ibragimova Shoira Normuminovna	
Optimisation of Technical and Physical Potential in the Implementation of the Rotational Method of Pushing the Core.....	733
Tajimbetov Anvar Tengelbayevich	
Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida.....	736
Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli	743
Usmonova Kamola Erkinovna	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	749
X. A. Suyunova	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni	752
Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida	756
Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li	

Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам: теоретико-методологический анализ	760
<i>Абидова М. И., Абидова Д. М.</i>	
Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении	764
<i>Амитова Майисия Рахмателлаевна</i>	
Эффективные приемы презентации лексики на уроках иностранного языка	767
<i>Гилязиева Насиба Михайловна</i>	
Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ ...	770
<i>Ислямова Сония Юнусовна</i>	
Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей разных поколений: результаты современных исследований	779
<i>У. Ш. Салимов</i>	
Innovatsiyalar va an'analar integratsiyasi asosida talabalarni ma'naviy ruhda tarbiyalashni takomillashtirish	784
<i>Usmonova Dilafruz Umirzoqovna</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligi	788
<i>Sharipov Ulug'bek Ibotovich</i>	
Texnologiya fanida raqamli ta'lim resurslari asosida amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish metodikasi	792
<i>X. Ch. Dusyorov, X. A. Qulmamatova, N. O. Shog'darov</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining strategik boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish tendensiyalari	796
<i>Itolmazova Gulzoda Qurbongeldiyevna</i>	
Sinfdan tashqari ishlar orqali boshlang'ich ta'lim o'quv jarayoniga sun'iy intellektni tatbiq etish metodikasi	800
<i>Nigmatullayeva Matluba Izatullo qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborotga oid ko'nikmalarni shakllantirishda didaktik o'yinlarning roli	805
<i>Shononova Gulsanam Shavkat qizi</i>	
Masofaviy ta'lim sharoitida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish tajribasi	810
<i>Shukurov Mirshod Karim o'g'li, Sharipov Bahrom Bo'riyevich</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion metodlarning sifatli ta'limdagi o'rni	816
<i>Jabbarova Zuhra Omondullayevna</i>	
Zamonaviy yondashuvlar asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	819
<i>Bozozrova Adiba Xudayarovna</i>	
Ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni olib borishda psixodiagnostik faoliyatning o'rni	823
<i>Odamova O'g'iljon Kenjayevna</i>	
Pedagogical and Psychological Possibilities of Technological Education in Developing Constructive Thinking in Early School Age	827
<i>Egamova Anbarjon Atanazarovna</i>	
Shaxsda empatiya shakllanishining yosh davrlar bo'yicha psixologik xususiyatlari	832
<i>Kurbanova Zaynab Jurakulovna</i>	
Voleybolchilarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	836
<i>Mustafayev Yoqubjon Xayrullayevich, Samatova Maftuna Sohib qizi</i>	
Oliygo'h talabalari o'rtasida basketbol sporti mashg'ulotlari orqali jismoniy sifatlarini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	840
<i>Mustafayev Yoqubjon Xayrullayevich, Husenova Norjona Umid qizi</i>	
Inson shaxsini shakllantirishda jamiyat tarbiyasining ahamiyati	844
<i>Normurodova Munisa Nuriddin qizi</i>	
Ikki tilli nutqda kod almashtirish hodisasining lingvistik, pragmatik va ijtimoiy funksiyalari	847
<i>Nurmamatova Zarifa Abdiraup qizi</i>	
Yosh kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini shakllantirish metodikasi	850
<i>Nurullayev Abdixoliq Qaxxorovich</i>	



Jismoniy tarbiya murabbiylarining faoliyatini sport klublarida tashkil qilishning integrativ mexanizmlari didaktik-metodik yondashuvlar	853
O'rinov Oblaqul Jumayevich	
O'quvchilarning ta'lim olish jarayoniga zamonaviy o'qitish usullarining ta'siri	857
Ochilova Sarvinoz Bozor qizi	
Talabalarga Regbi-7 sport o'yinida himoya va hujum usullari hamda texnologiyalarini takomillashtirish	860
Ramazonova Gulmira G'olib qizi	
Oliy ta'limda siyosiy tafakkurni shakllantirishda sun'iy intellektning pedagogik modeli: nazariya va amaliyot uyg'unligi.....	863
Rasulev Bobirjon Atxamovich	
Boshlang'ich sinflar ta'lim tizimida kommunikativ ta'lim harakatlarini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik shartlari	867
Shoira Rahimova Adilbekovna	
Raqamli texnologiyalar asosida talabalarning o'quv faoliyatini integrativ mexanizmlar orqali tashkil qilish va rivojlantirish.....	871
Sirojov Otajon Orifjonovich	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini mediata'lim resurslari vositasida rivojlantirish metodikasi	875
Suleymanova Ra'no Dustbekovna, Bekova Nilufar Aliboy qizi	
Nemis tilidan o'zbek tiliga tarjimada yuzaga keladigan lingvistik va kommunikativ qiyinchiliklar.....	881
Turamurodova Sevinch Anvarovna	
Globalashuv jarayonida ma'naviy-mafkuraviy mexanizmlarning estetik madaniyatda ifodalanishi	884
Xudayberdiyeva Xuriyat Karimberdiyevna	



OLIY TA'LIMDA SIYOSIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTNING PEDAGOGIK MODELI: NAZARIYA VA AMALIYOT UYG'UNLIGI

Rasulev Bobirjon Atxamovich

Toshkent davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi



Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida siyosiy tafakkurni shakllantirish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik modeli ishlab chiqilgan va tahlil qilingan. Tadqiqotda sun'iy intellekt asosida interaktiv o'quv muhiti yaratish, talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda siyosiy jarayonlarni chuqur anglash ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari o'rganilgan. Nazariy tahlil va amaliy tajriba uyg'unligi asosida sun'iy intellektning ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'siri asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: siyosiy tafakkur, sun'iy intellekt, oliy ta'lim, pedagogik model, raqamli ta'lim, tanqidiy fikrlash, innovatsion metodlar.

Abstract: This article explores a pedagogical model for the use of artificial intelligence in higher education to develop political thinking skills. The study examines the integration of AI-based interactive learning environments aimed at enhancing students' critical thinking and deepening their understanding of political processes. Through a combination of theoretical analysis and practical application, the effectiveness of artificial intelligence in improving educational outcomes is substantiated.

Key words: political thinking, artificial intelligence, higher education, pedagogical model, digital learning, critical thinking, innovative methods.

Аннотация: В статье разработана и проанализирована педагогическая модель применения искусственного интеллекта в формировании политического мышления в системе высшего образования. Исследование рассматривает возможности создания интерактивной образовательной среды на основе ИИ, развития критического мышления студентов и более глубокого понимания политических процессов. На основе сочетания теоретических положений и практического опыта обоснована эффективность использования искусственного интеллекта в образовательном процессе.

Ключевые слова: политическое мышление, искусственный интеллект, высшее образование, педагогическая модель, цифровое обучение, критическое мышление, инновационные методы.

KIRISH

Globalashuv jarayonlari hamda raqamli texnologiyalarning jadal sur'atlarda rivojlanishi zamonaviy jamiyat hayotining barcha sohalarida, xususan, ta'lim tizimida tub tarkibiy va mazmuniy o'zgarishlarni taqozo etmoqda. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari nafaqat mutaxassis kadrlarni tayyorlash, balki talabalarni jamiyatdagi murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni chuqur anglay oladigan, tanqidiy fikrlashga qodir va ongli fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslar sifatida shakllantirish vazifasini ham o'z zimmasiga olmoqda. Ayniqsa, siyosiy tafakkur shaxsning davlat va jamiyat hayotidagi voqea-hodisalarni tahlil qilish, demokratik qadriyatlarini anglash, ijtimoiy mas'uliyatni his etish hamda faol fuqarolik ishtirokini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois oliy ta'lim tizimida siyosiy tafakkurni rivojlantirish masalasi strategik ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelayagimiz, hayot-mamot masalasi" ^[1], hamda zamonaviy bilim va texnologiyalar bilan qurollangan yosh avlodni tarbiyalash mamlakat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Davlat rahbarining raqamli iqtisodiyot va raqamli ta'limni rivojlantirishga qaratilgan strategik tashabbuslari oliy ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etishni taqozo etmoqda.



Raqamli transformatsiya sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim jarayonining mazmuni va tashkil etilish shakllarini tubdan yangilash imkonini bermoqda. Sun'iy intellekt asosida yaratilgan adaptiv o'quv tizimlari, intellektual tutorlar, virtual simulyatsiyalar va interaktiv platformalar talabalar bilim darajasi hamda qiziqishlariga mos individual ta'lim traektoriyasini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa o'quv jarayonini yanada samarali, qiziqarli va chuqur o'zlashtirishga yo'naltirilgan holatga keltirmoqda. Ayniqsa, siyosiy fanlar doirasida sun'iy intellekt yordamida murakkab siyosiy vaziyatlarni modellashtirish, qaror qabul qilish jarayonlarini tahlil qilish hamda real hayotga yaqin sharoitlarda o'quv tajribasini yaratish talabalarning tafakkur doirasini kengaytirishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektning ta'lim jarayoniga integratsiyasi ko'proq texnik imkoniyatlar va umumiy o'quv samaradorligi nuqtayi nazaridan o'rganilgan bo'lib, uning siyosiy tafakkurni shakllantirishdagi tizimli pedagogik mexanizmlari yetarlicha yoritilmagan. Nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlovchi, shaxsning analitik fikrlashini rivojlantiruvchi hamda siyosiy jarayonlarga ongli yondashuvni shakllantiruvchi kompleks pedagogik modelga ehtiyoj mavjud.

Mazkur holatlar ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi oliy ta'lim tizimida siyosiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan sun'iy intellekt asosidagi pedagogik modelni ishlab chiqish hamda uning nazariy asoslari va amaliy samaradorligini ilmiy jihatdan asoslashdan iboratdir. Tadqiqot natijalari zamonaviy raqamli ta'lim muhitida innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali siyosiy ong va tafakkurni shakllantirishning yangi istiqbolli yo'nalishlarini ochib berishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy pedagogika nazariyasida siyosiy tafakkurning shakllanishi ta'limning ijtimoiy va tarbiyaviy funksiyalari bilan uzviy bog'liq holda izohlanadi. Ko'plab olimlar ta'lim jarayonini shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy tajribani ongli ravishda anglash va qayta ishlash mexanizmi sifatida talqin qiladilar. Xususan, J. Dewey ta'limni demokratik jamiyatning poydevori deb baholab, bilim berishdan ko'ra shaxsning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijtimoiy mas'uliyatni anglash qobiliyatlarini rivojlantirish muhimligini ta'kidlagan. Uning fikricha, o'quv muhiti muammoli vaziyatlarga boy bo'lishi va talabalarning faol ishtirokini ta'minlashi lozim bo'lib, bu jarayon siyosiy tafakkur shakllanishining asosiy sharti hisoblanadi [2].

Siyosiy tafakkur masalasi P. Freire, H. Arendt va D. Kolb kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida ham keng yoritilgan. P. Freire tanqidiy pedagogika konsepsiyasida shaxsni passiv bilim oluvchi emas, balki ijtimoiy voqelikni anglaydigan va o'zgartira oladigan subyekt sifatida shakllantirish zarurligini ilgari suradi. Uning ta'kidlashicha, ta'lim jarayoni shaxsda ijtimoiy adolat, fuqarolik ongi va siyosiy mas'uliyatni rivojlantiruvchi dialogik muhitga asoslanishi lozim.

H. Arendt esa siyosiy tafakkurni shaxsning jamoaviy hayotdagi qarorlar mohiyatini tushunish va baholash qobiliyati sifatida talqin etib, uni shakllantirishda ta'limning o'rni beqiyos ekanligini qayd etadi [3,4,5]. So'nggi yillarda raqamli pedagogika doirasida sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga ta'siri bo'yicha keng ko'lami tadqiqotlar olib borilmoqda.

R. Luckin va uning hamkorlari sun'iy intellekt asosida yaratilgan adaptiv ta'lim tizimlari talabalar bilimni individuallashtirish orqali o'quv samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, intellektual tutorlar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari o'quv jarayonida tezkor teskari aloqa ta'minlab, chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida siyosiy tafakkurni shakllantirishda sun'iy intellektning pedagogik imkoniyatlarini o'rganish maqsadida tizimli tahlil va sintez, pedagogik modellashtirish, so'rovnoma va kuzatuv, tajriba-sinov mashg'ulotlari hamda statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar orqali ishlab chiqilgan pedagogik modelning samaradorligi amaliy jihatdan sinovdan o'tkazildi hamda olingan natijalarning ilmiy asoslanganligi ta'minlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida sun'iy intellekt asosida tashkil etilgan ta'lim modeli oliy ta'lim muassasalarida talabalarning siyosiy tafakkurini rivojlantirishga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatgani aniqlandi. Tajriba-sinov mashg'ulotlari davomida an'anaviy o'qitish usullari bilan taqqoslanganda, sun'iy intellekt texnologiyalari integratsiya qilingan guruhlarda talabalarning bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishi, siyosiy jarayonlarga nisbatan tahliliy yondashuvi hamda muammoli vaziyatlarda faol ishtiroki ortgani kuzatildi. Statistik tahlil natijalariga ko'ra, tajriba guruhidagi talabalarning tanqidiy fikrlash darajasi o'rtacha 35-40 foizga oshgan bo'lib, bu sun'iy intellekt asosida yaratilgan interaktiv muhitning samaradorligini tasdiqlaydi. Shuningdek, siyosiy jarayonlarni tahlil qilish qobiliyati sezilarli darajada rivojlangani aniqlandi.



Sun'iy intellekt yordamida modellashtirilgan siyosiy vaziyatlar, virtual munozaralar va qaror qabul qilish simulyatsiyalari orqali talabalar real hayotdagi siyosiy muammolarni tizimli baholash, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash hamda turli nuqtayi nazarlarni solishtirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada ushbu ko'rsatkich o'rtacha 30 foizga yaxshilangani qayd etildi. Bu esa sun'iy intellektning siyosiy bilimlarni faqat nazariy o'zlashtirish emas, balki amaliy tahliliy tafakkurni shakllantirishda ham muhim pedagogik vosita ekanini ko'rsatadi. Bundan tashqari, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari ham sezilarli darajada rivojlandi. Interaktiv simulyatsiyalar jarayonida talabalar turli siyosiy ssenariylar asosida muayyan qarorlar qabul qilib, ularning oqibatlarini sun'iy intellekt tizimi orqali baholash imkoniga ega bo'ldilar. Bu esa talabalarda mas'uliyat hissi, strategik fikrlash hamda o'z pozitsiyasini asoslab bera olish qobiliyatini kuchaytirdi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhidagi talabalar o'z fikrlarini aniq dalillar bilan himoya qilishga ko'proq intila boshladilar.

1-jadval: Sun'iy intellekt asosidagi pedagogik modelning tarkibiy tuzilmasi

№	Pedagogik model komponenti	Mazmuni	Ta'limdagi vazifasi
1	Axborot-intellektual modul	Sun'iy intellekt yordamida har bir talabaga mos individual bilim traektoriyasini shakllantirish, bilim darajasi va qiziqishlarga mos o'quv materiallarini taqdim etish	Mustaqil o'rganishni qo'llab-quvvatlash, bilimlarni chuqurlashtirish va individuallashtirish
2	Interaktiv-simulyatsion modul	Virtual muhitda siyosiy jarayonlar, bahslar va qaror qabul qilish vaziyatlarini modellashtirish	Amaliy tajribani oshirish, nazariy bilimlarni real vaziyatlar bilan uyg'unlashtirish
3	Reflektiv-tahliliy modul	Talabalar faoliyatini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash hamda sun'iy intellekt asosida teskari aloqa berish	Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, xatolar ustida ishlash va bilimlarni mustahkamlash

Mazkur pedagogik modelning tarkibiy tuzilmasi oliy ta'lim jarayonida siyosiy tafakkurni shakllantirishni tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirish imkonini beradi. Jadvalda keltirilgan uch asosiy komponent o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, har biri ta'lim jarayonining muayyan funksional vazifalarini bajaradi hamda umumiy pedagogik maqsadga xizmat qiladi.

Birinci komponent – axborot-intellektual modul ta'lim jarayonining individualizatsiyasini ta'minlashga yo'naltirilgan. Sun'iy intellekt algoritmlari yordamida har bir talabaga mos bilim darajasi, o'rganish sur'ati va qiziqish doirasi aniqlanib, shunga muvofiq individual o'quv traektoriyasi shakllantiriladi. Bu yondashuv an'anaviy ta'lim tizimida ko'p hollarda e'tibordan chetda qoladigan shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish imkonini beradi. Natijada talabalar o'z bilimlarini mustaqil ravishda chuqurlashtirishga undaladi, o'rganishga bo'lgan motivatsiya oshadi hamda bilimlardagi bo'shliqlar tezkor aniqlanib, bartaraf etiladi. Shu orqali mazkur modul siyosiy fanlar bo'yicha fundamental bilimlarning mustahkam asosda shakllanishiga xizmat qiladi.

Ikkinchi komponent – interaktiv-simulyatsion modul siyosiy tafakkurni amaliy tajriba asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, u ta'lim jarayonining eng faol va innovatsion qismi hisoblanadi. Virtual muhitda yaratilgan siyosiy vaziyatlar, parlament muhokamalar, saylov jarayonlari yoki ijtimoiy-siyosiy mojarolarni modellashtirish orqali talabalar real hayotga yaqin sharoitlarda qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etadilar. Bu jarayon ularning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirib, sabab-oqibat munosabatlarini anglash, strategik fikrlash hamda turli siyosiy nuqtayi nazarlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, talabalar jamoaviy muhokamalar jarayonida muloqot madaniyatini, dalillar asosida bahslashish va o'z fikrini himoya qilish qobiliyatini shakllantiradilar. Natijada siyosiy jarayonlarni passiv o'rganishdan faol idrok etishga o'tish ta'minlanadi.

Uchinchi komponent – reflektiv-tahliliy modul ta'lim jarayonining tahliliy va baholovchi bosqichini tashkil etadi. Ushbu modul orqali talabalar o'z faoliyatini mustaqil ravishda baholash, erishilgan natijalarni tahlil qilish hamda sun'iy intellekt tomonidan taqdim etilgan teskari aloqa asosida o'z bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Refleksiya jarayoni talabalarning o'z xatolarini anglash, ularning sabablarini tushunish va kelgusida bunday kamchiliklarni takrorlamaslik bo'yicha ongli xulosa chiqarishiga yordam beradi. Bu esa tanqidiy fikrlashni chuqurlashtirib, siyosiy jarayonlarga nisbatan mas'uliyatli va ongli yondashuvni shakllantiradi. Mazkur uch komponentning o'zaro integratsiyasi ta'lim jarayonining uzluksizligi va samaradorligini ta'minlaydi. Axborot-intellektual modul nazariy bilimlar bazasini yaratib bersa, interaktiv-simulyatsion modul ushbu bilimlarni amaliy faoliyatda sinab ko'rish imkonini beradi, reflektiv-tahliliy modul esa olingan tajribani tahlil qilish va mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada talabalar bilimni passiv qabul qiluvchi subyekt emas, balki faol o'rganuvchi, tahlil qiluvchi va qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida shakllanadi.



Umuman olganda, taklif etilgan pedagogik model sun'iy intellekt texnologiyalarining innovatsion imkoniyatlarini ta'lim jarayoniga tizimli ravishda integratsiya qilish orqali siyosiy tafakkurni rivojlantirishning samarali mexanizmini yaratadi. Jadvalda keltirilgan komponentlar nafaqat o'quv jarayonini zamonaviylashtirishga xizmat qiladi, balki talabalarning fuqarolik ongini, tanqidiy tafakkurini va jamiyatdagi siyosiy jarayonlarga faol munosabatini shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Mazkur pedagogik model nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlab, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalarini siyosiy ta'lim jarayoniga tizimli integratsiya qilish orqali talabalarning nafaqat bilim darajasi, balki ularning tanqidiy, analitik va strategik tafakkurini ham rivojlantirish mumkin. Bu esa zamonaviy jamiyatda ongli fuqarolarni tayyorlashda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Sun'iy intellekt texnologiyalarining oliy ta'lim tizimiga joriy etilishi siyosiy tafakkurni shakllantirish jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqayotgani mazkur tadqiqot natijalari orqali yaqqol namoyon bo'ldi. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt asosida tashkil etilgan ta'lim muhiti talabalarni faollashtirishga, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga hamda murakkab siyosiy jarayonlarni chuqur anglashga undashda yuqori samaradorlikka ega. Nazariya va amaliyot uyg'unligiga asoslangan pedagogik model orqali talabalarning tanqidiy fikrlashi, analitik yondashuvi hamda muammoli vaziyatlarda ongli qaror qabul qilish ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlanganligi aniqlandi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan axborot-intellektual, interaktiv-simulyatsion va reflektiv-tahliliy modullardan iborat pedagogik model ta'lim jarayonini individuallashtirishga, amaliy tajriba bilan boyitishga hamda o'z-o'zini baholash mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qilgan holda kompleks ta'lim muhitini shakllantirdi. Ushbu yondashuv talabalarni bilimlarni passiv qabul qiluvchi subyektlar emas, balki faol o'rganuvchi, tahlil qiluvchi va jamiyatdagi siyosiy jarayonlarga ongli munosabat bildiruvchi shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qildi.

Natijalar sun'iy intellekt texnologiyalarining siyosiy ta'lim sohasida innovatsion pedagogik vosita sifatidagi yuqori salohiyatini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Shuningdek, mazkur tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishga, ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosida yangilashga hamda talabalar kompetensiyalarini rivojlantirishga muhim hissa qo'shadi. Sun'iy intellekt asosidagi pedagogik modelni siyosatshunoslikdan tashqari ijtimoiy fanlarning boshqa yo'nalishlariga ham moslashtirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu uning universalligini ko'rsatadi. Kelgusida sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga yanada chuqur integratsiyasini ta'minlash, ularning metodik asoslarini takomillashtirish hamda milliy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish bo'yicha kompleks ilmiy izlanishlar olib borish zarur.

Xususan, sun'iy intellekt yordamida baholash tizimlarini avtomatlashtirish, talabalarning individual rivojlantirish dinamikasini prognozlash hamda o'quv dasturlarini adaptiv tarzda boshqarish imkoniyatlarini kengaytirish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Umuman olganda, sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan pedagogik model oliy ta'limda siyosiy tafakkurni shakllantirishning innovatsion va samarali mexanizmi sifatida namoyon bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot natijalari ta'lim siyosatini takomillashtirishga, raqamli pedagogika konsepsiyalarini rivojlantirishga hamda kelajak avlodning ongli fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi", – Shavkat Mirziyoyev. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya--bu-bizning-kelajagimiz-hayot-mamot-masalasi--shavkat-mirziyoev>
2. Arendt, H. (1958). The Human Condition. University of Chicago Press.
3. Dewey, J. (1916). Democracy and Education. Macmillan.
4. Freire, P. (1970). Pedagogy of the Oppressed. Continuum.
5. Kolb, D. A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Prentice Hall.
6. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. Pearson.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.